

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

SCIENTIFIC AND THEORETICAL CHARACTERIZATION OF THE CONCEPTS OF FOREIGN (EXTERNAL) AND DOMESTIC (NATIONAL) INVESTMENT, AND THEIR ROLE AND SIGNIFICANCE IN A MARKET ECONOMY

Dilboboev Nozimbek

Lecturer of the Department of Private International Law,
Tashkent State University of Law

E-mail: dilboboyevnozimbek@gmail.com

Abstract. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the concepts of foreign and domestic investment and their significance in a market economy. It examines the economic and legal nature of investment, distinguishes between investors and entrepreneurs, and considers key aspects of investment relations. Based on international legal instruments and bilateral investment treaties, the study highlights the role of foreign investment as a source of external financing. The findings contribute to the theoretical development of investment law and the improvement of legal regulation of investment activities.

Keywords: investment, foreign investment, domestic investment, investor, market economy.

XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Dilboboyev Nozimbek

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xalqaro xususiy huquq kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xorijiy (chet el) va mahalliy (milliy) investitsiya tushunchalarining ilmiy-nazariy mazmuni hamda ularning bozor iqtisodiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Investitsiya tushunchasining iqtisodiy va huquqiy mohiyati, investor va tadbirkor kategoriyalarining farqi, shuningdek, investitsiya munosabatlarning subyektlari va obyektlari yoritiladi. Xalqaro huquqiy hujjatlar va ikki tomonlama investitsiya bitimlari asosida xorijiy investitsiyalarning tashqi moliyalashtirish manbai sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari investitsiya huquqini nazariy jihatdan rivojlantirish va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, milliy investitsiya, investor, bozor iqtisodiyoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N37>

Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi kapitalning va moliyaviy resurslarning global miqyosda integratsiyalashuviga olib keldi. Albatta, bu holat o'ziga xos munosabatlar tizimini vujudga kelishi va uning atrofida bir qator ilmiy muhokamalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ayni paytda bu sof iqtisodiy munosabat bo'libgina qolmay, huquqiy tartibga solish masalalarini ham qamrab olardi. Shu sababli investitsiya faoliyati iqtisodchi olimlar bilan bir qatorda huquqshunoslar orasidagi tadqiqotchilar uchun ham dolzarb mavzuga aylandi.

“Investitsiyalar” ingliz tilidan (investments) tarjima qilinganda “kapital qo'yish” ma'nosini anglatadi. Investitsiyani ayni paytda kapital deyish mumkin. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida mashhur fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832) “Siyosiy iqtisod risolasi” kitobida (1803) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch klassik omillari – yer, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta'riflagan edi. Demak, investitsiyaviy munosabatlarni tadbirkorlik faoliyatidan ajratib bo'lmaydi.

Investorning huquqiy maqomini to'g'ri belgilash, ushbu tushunchaning mohiyatini anglash uchun, avvalambor, “investitsiya” atamasining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Investitsiyaga doir ko'plab ta'riflar mavjud. Investsiya – tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tarafning va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, jismoniy, yuridik shaxs yoki davlatning iqtisodiy foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadida qonunda nazarda tutilgan tadbirkorlik faoliyatining har qanday obyektlariga o'zining moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni jalb qilishi sanaladi [1]. William F. Sharpning fikriga ko'ra investitsiyalar kelgusida ko'proq qimmatliklarni olish maqsadida muayyan qimmatliklardan hozirgi vaqtda voz kechish sanaladi [2]. Shunga o'xshash fikr K.K. Isayeva tomonidan keltirib o'tilgan. Ushbu fikrga binoan investitsiyalash kelajakda ko'proq mablag' olish uchun pulidan bugungi kunda ayrilishni anglatadi [3].

Bundan tashqari, ko'plab huquqiy va iqtisodiy nashrlar “investitsiya” so'ziga turli ta'riflar beradi. Misol uchun, R. Dolzer, S. Shcreuerlarning fikricha, investitsiya – iqtisodiy foyda yoki ijtimoiy foyda olish maqsadida qonun bilan nazarda tutilgan tadbirkorlik faoliyatida har qanday obyektidan har qanday moliyaviy, moddiy yoki intellektual mulk jalb etish hisoblanadi [4].

R. Bozorovning fikriga ko'ra, investitsiyalar investitsiya faoliyati obyektidan foyda olish yoki muayyan vaqt va boshqa ijobiy ta'sirlarga erishish uchun mo'ljallangan moddiy va intellektual mulkdir [5]. Shu bilan birga, olimlar fikriga asoslanib, investitsiyalar iqtisodiy kategoriya va belgilangan maqsadlarga erishish vositasidir degan umumiy fikrni o'rta tashlashimiz mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda olimlar tomonidan taqdim etilgan va qonun normalarida aks ettirilgan investitsiyalarning ta'riflari haqida ma'lumot beriladi. Masalan, V.V. Bocharov o'zining quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi: “Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati – bu asosiy va aylanma kapitalni korxonani tashkil etish, rekonstruksiya yoki texnik qayta qurollantirishga sarflash; moliyaviy investitsiya bo'yicha – investorni moliyaviy kapitalini oshirish maqsadida uning instrumentlaridan foydalanib, mablag'larni aksiya, obligatsiya, bank depozitlariga va boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yishdir. Investitsiya keng ma'noda yuritilib, bu investitsion jarayondagi hudud yoki mamlakatdagi moliya tizimini evolyutsion jarayonining hozirgi holati bilan izohlanadi. Investitsiya deganda AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiyada fond bozorlariga ko'proq e'tibor qaratilib, investitsiyalash qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi degan tushunchalari mavjud. Boshqacha so'z bilan aytilganda, portfel investitsiya so'zi bilan yuritiladi” [6]. V.V. Bocharov o'zining yana bir fikrida: “Investitsiya – bu barcha turdagi tadbirkorlik hamda boshqa turdagi biznesning mulkiy va intellektual mulki bo'lib, natijasi foyda yoki ijtimoiy samaradir”, – deb qayd etgan [7].

Peter Muchlinskiy, Federiko Ortino va Kristof Schreuerk investitsiyalarning milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, mamlakat yoki chet elda, foyda olish maqsadida davlat yoki xususiy kapitalning uzoq muddatli investitsiyasi ekanligini ta'kidlashadi [8].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining bir qator ikki tomonlama bitimlari va kelishuvlarida aks ettirilgan investitsiya atamasi sifatida tasvirlangan obyektlar investitsiyalarni "kapital-transfer" deb belgilash to'g'riligini isbotlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida 2011-yil 19-aprelda Pekinda imzolangan "Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida"gi Bitim (2011-yil 30-dekabrda kuchga kirgan)ning 1-moddasida belgilanishicha, "Investitsiya" atamasi bir Ahdlashuvchi Tomon investori boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida shu Ahdlashuvchi Tomonning qonun va normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq investitsiya qilgan aktivlarining barcha turlarini anglatadi [9].

Ma'lum bo'lishicha, investitsiyalar qaysi tarmoqqa yo'naltirilganligiga va huquqning bir turiga qarab o'z nomiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bir qator tadqiqotchilar va olimlar investitsiya turlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini o'tkazadilar va ularni muayyan mezonlarga muvofiq guruhlashadilar. Misol uchun, A. Sobirovning fikriga ko'ra, quyidagi turdagi investitsiyalar mavjud:

- ❶ ko'chmas mulk va moliyaviy investitsiyalar;
- ❶ investitsiya jarayonida ishtirok etish imkoniyati bo'yicha: *to'g'ridan-to'g'ri*;
- ❶ ishlab chiqarishga yo'naltirilganligiga qarab: *yalpi, yangilangan va toza*;
- ❶ investorga qarab: *ichki va tashqi*;
- ❶ sotish muddati bo'yicha: *qisqa muddatli va uzoq muddatli*;
- ❶ rentabellik darajasi bo'yicha: *yuqori daromad, o'rtacha daromad va kam daromad*;
- ❶ xavf darajasi bo'yicha: *xavfsiz, past xavfli, mo'tadil va yuqori xavfli*;
- ❶ likvidlik darajasi bo'yicha: *yuqori likvidlik, o'rtacha likvidlik, past likvidlik va o'zgaruvchanlik*;
- ❶ investitsiya qilingan kapitalning mulk turi bo'yicha: *xususiy, davlat va aralash*;
- ❶ investitsiya jarayonida kapitaldan foydalanishning tabiati bo'yicha: *asosiy reinvestitsiya*;
- ❶ investitsiya kapitalining mintaqaviy yo'nalishi bo'yicha: *ichki bozorda investitsiyalar va tashqi bozorlardagi investitsiyalar*;
- ❶ tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiyalar: *investitsiya tasnifiga mos keladigan tarmoqlar va tarmoqlarga investitsiyalar* [10].

Yuqoridagi shaklda investitsiyalarni klassifikatsiyalashda uning o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni investitsiya obyekti, subyekti va maqsadi kabi muhim faktorlar inobatga olinadi. Mazkur investitsiyalar klassifikatorida investorga, ya'ni investitsiya subyektiga qarab tasniflash alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga ajratiladi. Bularndan tashqi investitsiyalar xorijiy investitsiya yoki chet el investitsiyalari deb ham yuritilsa, ichki investitsiyalar esa adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi, jumladan, milliy investitsiyalar yoki mahalliy investitsiyalar kabi.

Xo'sh, shu o'rinda savol tug'iladi. Xorijiy investitsiyalar nima, investitsiya qanday turlari amalda mavjud va kimlar xorijiy investorlar bo'lishi mumkin? Bu savollarga yetakchi yuridik fanlar olimlarining asarlarini tahlil qilish orqali javob olish mumkin.

Mamlakatimiz ilm-fanida "investitsiyalar" atamasi mamlakatimizda bozor munosabatlari rivoji munosabati bilan keng tarqaldi. "Investitsiya" atamasi lotin "investire" dan kelib chiqqan va "kiyinish" degan ma'noni anglatadi. Feodalizm davrida investor feodal mulkka kirish jarayoni deb atalgan [11].

Amerikalik olim Alan Markus “investitsiya”ni sarmoyani daromaddan ajratish sifatida belgilaydi [12]. Haqiqatan ham investitsiya qanday maqsadda kiritilishidan qat’iy nazar muayyan sarmoyadan moddiy yoki nomoddiy manfaat ko’rishni ko’zda tutadi.

O’zbekiston Respublikasining yuridik fanlar sohasidagi yetakchi olimlaridan biri o’z ishida “xorijiy investitsiyalar” tushunchasini nafaqat quyidagicha belgilashni, balki uni qonun bilan mustahkamlashni taklif qilgan – chet davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turli xil turdagi aktivlar (ko’char, ko’chmas mulk, intellektual mulk va boshqalar) va ularning daromadlari (foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va komissiya to’lovlari, texnik yordam, texnik xizmat ko’rsatish va boshqa to’lov shakllari uchun to’lovlar) qabul qiluvchi mamlakatning turli sohalariga, asosan, pirovard natijada daromad olish maqsadida qilinadigan investitsiya [13].

N.N. Voznesenskaya chet el investitsiyalarining quyidagi ta’riflarini beradi: “Investitsiyalarni xorijiy investor tomonidan mablag’ bilan ta’minlash deb tushunish kerak, unda iqtisodiy faoliyat majburiy bo’lib, ushbu mablag’lardan kelishilgan maqsadli foydalanishga yo’naltirilgan xorijiy elementning ishlab chiqarish faoliyati, ushbu faoliyat (mahalliy kapitalning ishtiroki yoki ishtirokisiz) iqtisodiy yosh davlatning rivojlanishiga, uning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradigan shartli ishlab chiqarish obyektlari yaratishga olib keladi” [14].

Stenford professori Sharpe Williamning so’zlariga ko’ra, odatda ikkita omil investitsiya jarayoni bilan bog’liq – vaqt va xavf. Biz hozir va ma’lum miqdorda pul berishimiz kerak. Kompensatsiya keyinchalik umuman olinadi va uning qiymati oldindan ma’lum emas [15]. Ushbu fikrlar asosida investitsiya riski masalasi yotganligini bir qarashda anglash mumkin.

Yuridik adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarning ta’rifi fuqarolik huquqlari obyektlari ro’yxatini ko’rsatish orqali beriladi. Xususiyl xalqaro huquqning taniqli olimi M.M. Boguslavskiy xorijiy investitsiyalar moddiy va nomoddiy buyumlarning egasi tomonidan ularning qiymatini oshirish maqsadida bir davlatdan ikkinchisiga o’tkazilishini va ulardan foydalanish ustidan to’liq yoki qisman nazoratni o’z ichiga olganligini ta’kidlaydi [16].

Bundan tashqari, biz xalqaro huquqiy hujjatlarda va mamlakatlar o’rtasidagi ikki tomonlama bitimlarda keltirilgan xorijiy investitsiyalarning turli tushunchalarini ko’rishimiz mumkin. Xususan, xorijiy investitsiyalarni ta’riflashda yangi yondashuv 1985-yil 11-oktyabrda “Investitsiyalar kafolatlari bo’yicha ko’p tomonlama agentlik (MIGA)ni tashkil etish to’g’risida”gi Seul konvensiyasida qabul qilindi. Seul konvensiyasining 12-moddasida investitsiyalar tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Investitsiyalar kafolat ostida bo’lgan o’rta va uzoq muddatli kreditlar, shu jumladan, aksiyadorlik ishtirokini, aksiyalar egalari tomonidan manfaatdor korxonaga taqdim etilgan yoki ular tomonidan kafolatlangan, shuningdek, direktorlar Kengashi tomonidan belgilanishi mumkin bo’lgan to’g’ridan-to’g’ri kapital qo’yilmalarning bunday shakllarini o’z ichiga oladi” [17]. Konvensiyada berilgan chet el investitsiyalarining ta’rifidan kelib chiqqan holda, MIGA direktorlar kengashi tasdiqlash tizimi asosida xorijiy investor tomonidan chet el investitsiyalari sifatida amalga oshiriladigan ishlarni malakali qiladi, bu ularga ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan xalqaro sug’urta tizimini qo’llash imkonini beradi [18].

Investitsiya tushunchasi, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi hukumati bilan Shvetsiya hukumati o’rtasida tuzilgan 2001-yil 29-maydagi “Investitsiyalarni rag’batlantirish va o’zaro himoya qilish to’g’risida”gi bitimda ham mavjud bo’lib, “investitsiya” atamasi boshqa

Ahdlashuvchi tomon hududida bir Ahdlashuvchi tomon tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita investor tomonidan investitsiya qilingan yoki nazorat ostida bo'lgan aktivlarning har qanday turini anglatadi, agar investitsiya boshqa Ahdlashuvchi tomonning qonunlari va qoidalariga muvofiq amalga oshirilgan bo'lsa [19].

Investitsiya turlari investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiya qilish yoki investitsiya qilish uchun mo'ljallangan moddiy va nomoddiy manfaatlarga asos bo'ladi. Xususan, I.Z. Farhutdinov ilmiy ishlaridan xorijiy investitsiyalar quyidagi turlarga ajratgan:

1. Maqsad obyekti bo'yicha:

a) kapital; b) innovatsion; v) ijtimoiy.

2. Investitsiya manbalari egalari tomonidan:

a) davlat mulki – davlat kapitali;

b) xususiy mulk – xususiy kapital, investitsiyalar.

3. Investitsiya shaklida:

a) kredit shakli, ya'ni kredit mablag'lari va kreditlar va kreditlar shaklida investitsiyalar;

b) tadbirkorlik shakli – to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalari shaklidagi tadbirkorlik kapitali [20].

N.N. Voznesenskayaning fikricha esa davlat chet el investitsiyalari xalqaro qarzlar, kreditlar va hokazo, qoida tariqasida, mezbon davlatning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasida amalga oshiriladi. Bunday holda, xalqaro investitsiya huquqi subyektlari (davlatlar va xalqaro tashkilotlar – investitsiya va boshqa banklar va ularning institutlari, masalan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va uning institutlari) o'rtasidagi munosabatlar vujudga keladi [21]. Bu fikr yuqorida I.Z. Farhutdinovning investitsiya manbalari egalari toifasiga ko'ra tasniflash haqidagi qarashining o'zginasi desak, xato bo'lmaydi. Ammo xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi har qanday kredit munosabatlari ham investitsiyaviy munosabat bo'lmasligi mumkin, chunki bu holatda Ba'zi kreditlar investitsion maqsadda amalga oshirilmasligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Amerikalik olim F. Xenius o'zining 1947-yil AQSHda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2- nashrida quyidagicha ta'riflaydi: "Xorijiy investitsiyalar – bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar" [22].

Demak, biz yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklar bo'lib, chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbai sifatida milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi.

Shu o'rinda investitsiyalarni subyektiga ko'ra tasniflashda ichki investitsiyalar, ya'ni mahalliy (milliy) investitsiyalar tushunchasiga ilmiy-nazariy jihatdan alohida to'xtalib o'tsak.

Amaliyotda "investor" tushunchasi "tadbirkor" tushunchasiga tenglashtiriladi. Ko'plab normativ huquqiy hujjatlarda mahalliy investorlar deganda aynan mahalliy tadbirkorlar tushuniladi. Biroq, investor bu aynan tadbirkor emas. Shu bilan birga tadbirkor investor bo'lishi mumkin. Investor tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etmasligi ham mumkin. Tadbirkor xoh u jismoniy shaxs bo'lsin, xoh u yuridik shaxs bo'lsin foyda olishga qaratilgan faoliyati bilan shaxsan o'zi shug'ullanadi. Mahsulot ishlab chiqaradi, shartnomalar tuzadi. O'zi ishlab chiqargan mahsulotlari uchun bozor izlaydi. Korxonada operativ boshqaruvni amalga oshiradi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun shaxs muayyan talablarga javob berishi lozim. Investor bo'lish uchun esa maxsus talab mavjud emas. Shaxsning Fuqarolik kodeksi bo'yicha muomala layoqatiga ega bo'lishi unga huquqiy munosabatlarda ishtirok etish uchun imkon beradi. Asosiy masala shaxsda investor bo'lishi mol-mulk mavjudligidir. Moliyaviy resurslarning qancha ekanligini esa investitsion munosabatlarda muhim emas. Tadbirkorlik muayyan tashkiliy-huquqiy shaklda amalga oshiriladi. Barcha tashkiliy huquqiy shakllar mohiyatan sarmoyani yoki sa'y-harakatni yoki sarmoya va sa'y-harakatni birlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Demak, sarmoya yoki sarmoya va sa'y-harakatni birlashtirishi mumkin bo'lgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda investor ishtirok etishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, kommandit shirkat, oilaviy korxona kabi tashkiliy-huquqiy shakllarda investor huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Shaxsning qarz munosabatlarida qarz beruvchi sifatida ishtirok etishi esa uning investorga aylanishiga olib kelmaydi. Chunki qarz masalalarida moliya resurslar harakatga keltirilsa-da, qarz beruvchi bunday foyda olishni nazarda tutmaydi. Ammo bu masala juda tortishuvli. Lekin qarz majburiyatini boshqa majburiyatga almashtirish mumkin. Demak, bu holatda ham ikki tomonlama yondashish lozim.

Shaxs aksiya, obligatsiya, umuman olganda, barcha turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olishi orqali investorga aylanadi. Fuqarolarning banklarga omonat qo'yishi investitsiya munosabatlarimi degan masala ham jiddiy e'tiborga muhtoj.

AQShlik olimlarning fikricha investor va tadbirkorning bir-biridan yaqqol ajralishi korxonada mulkchilik va boshqaruvning ajralishi bilan bog'liq [23]. Bu mulohaza esa korporativ huquq subyektlarining o'ziga xos belgilaridan birini nazarda tutmoqda.

Umuman olganda, milliy investitsiyalar tushunchasi nazariy jihatda keng qamrovga ega. Har bir yurisdiksiyada milliy investitsiyalar va investorlarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, jalb qilish shakliga ko'ra farqlanuvchi holatlar bo'lishi mumkin. Biroq barcha holatlarda mahalliy rezidentlarning korporativ huquqiy munosabatlarda ishtirok etish jarayonida milliy investitsiyalar harakatga kelishi namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2003. – B. 14.
2. William Sh. Fundamental textbook on investments. Moscow. Infra 2001, pp. 1020.
3. Исаева К.К. Инвестиционное право Кыргызской Республики. – Бишкек, КНУ, 2012. – С.18-19.
4. Dolzer R. Schreuer C. Principles of international investment law. Textbook. Second edition. 2012. Great Clarendon Street, Oxford, OX2. United Kingdom. – P. 23.
5. Бозоров Р.Б. Инвестиционное право: Учебник. – Душанбе: ТГНУ, 2008. – С. 63.
6. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник - 2 - е издании – СПб: – Питер, 2009. – С. 348.
7. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник - 2 - е издании – СПб: – Питер, 2009. – С. 349.
8. Muchlinski P., Ortino F. and Schreue Ch. The Oxford Handbook of International Investment Law. Published online: Sep 2012. – P. 527.
9. O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida 2011-yil 19-aprelda Pekinda imzolangan "Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida"gi Bitim (2011-yil 30-dekabrda kuchga kirgan). // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2011-yil, 3-4-son.

10. Sobirov A. "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilishning davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish" disser. ishi. – T.: 2010. – B. 25.
11. Финансово-кредитный словарь // Под ред. Гарбузова В.С. – Т. 1. – М.: 2012. – С. 128.
12. Зви Боди, Алекс Кейн, Алан Маркус. Принципы инвестиций. – М.: «Вильямс», 2004. – С. 984.
13. Самарходжаев Б.Б. Проблемы правового регулирования отношений по инвестициям в Республике Узбекистан (международно-частноправовой аспект), диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Т.: 2003. – С. 22.
14. Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиций и смешанные предприятия в странах Африки. М.: 1975. – С. 26-27.
15. Sharpe William F. Bailey Jeffery V. Investments. Fifth edition. – Prentice Hall International, Inc. N.Y. 1998. – P. 1.
16. Богуславский М.М. Иностранные инвестиции. – М.: 1996. – С. 54.
17. Convention establishing the Multilateral Investment Guarantee Agency (with annexes and schedules). Concluded at Seoul on 11 October 1985. [Electronic resource] is available at: <https://treaties.un.org/doc/Publication/UNTS/Volume%201508/volume-1508-I-26012-English.pdf>.
18. Гулямов С.С. Правовое регулирования иностранных инвестиций в республике Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Т.: 2001. – С. 29.
19. Agreement between the Government of the Republic of Uzbekistan and the Government of the Kingdom of Sweden on the Promotion and Reciprocal Protection of Investments (May 29, in the year 2001). [Electronic resource] is available at: <http://invest.gov.uz/wp-content/uploads/agreement/Sweden.pdf>.
20. Рахмонкулов Х.Р. Гулямов С.С. Корпоративное право: учебник. – Т.: 2004. – С. 205.
21. Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиции и смешанные предприятия в странах Африки. М.: 1975. – С. 56.
22. Henius F., Dictionary of Foreign Trade (New York, 1947). Sec / Ed. N4., 1947. – P. 387.
23. Investments. Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus. The 6th edition. The McGraw-Hill. Singapur. 2005. – P. 7.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).